

MAKTABDAGI TARBIVAVIY ISHLAR TIZIMIDA SINIF RAHBAR FAOLIYATI.

Jo'rayeva Sabrina Laziz qizi

Ziyotova Dinara Zayniddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati va vazifalari korsatib otilgan. Sinf rahbarining ishlash jarayonlarini, jahon, rus, ozbek olimlarining sinf rahbarlari to'g'risidagi fikrlari ochib berilgan.*

Kalit sozlar: *Sinf rahbari, sinf rahbari faoliyati, sinf rahbariga qoyiladigan talab.*

Sinf rahbari –bu oquvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshdagi bolalar, bilimi jihatidan teng bolgan jamoani boshqaruvchi pedagog tushiniladi. Sinf rahbarining oquvchilarga korsatadigan ta'sir kuchi bola ongi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Maktab hayotida va bolalarning ta'lim-tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Sinf rahbarligi faoliyatining ma'lum bir qismini tarbiyachi bo'lib ish yuritishi o'rin olgan.

Sinf rahbarining asosiy maqsadi- bu o'quvchilarga tarbiya berish, bilim va ilm olishda ko'maklashish, u bilan ona va bola bo'lishdir. Sinf rahbari va o'quvchi bir-birini tushunishi kerak. Maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari sinf rahbarligida birinchi qadamni qo'yadilar. Sinf rahbari- bu bir oila boshlig'i demakdir. O'qituvchi faoliyatida o'quvchi va o'qituvchi orasidagi munosabat o'qituvchining bolalarga mehribonligi va talabchanligini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchilar o'quvchilar bilan olib boradigan munosabat to'g'ri yo'lga qo'yilsa bolaning tarbiyasi ham to'g'ri shakillanadi. Sinf jamoasini tashkil etishda sinf rahbarining o'rni alohida o'rin tutadi. Sinf rahbarining yana asosiy roli - bu jamoani jipslashtirish.

Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermahsuldir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi bolalar vaqtini nima bilan band qilish va tanlagan ish turini qanday amalga oshirishini bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi.

Sinf rahbari bolalarni yaxshi bila olish uchun ularni o'rganish davrida, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarida amalga oshiriladi.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o'quvchi hulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rgatishga e'tiborini qaratishi mumkin. O'quvchini har tomonlama o'rgatishga erishmoq uchun dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish o'quvchilarni o'rgatish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularini tayyorlash kerak bo'ladi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomala qila olishi murakkab va nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar,ular

vaqtli matbuot, televideniya, radio orqali pedagogik ma'lumotlarni bilib olishadi. Shunday vaziyatlar ham bo'ladiki o'g'il yoki qiz bola maktabda o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada hushyor va gapga quloq solidi, yoki aksincha.



Sinf rahbari quidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu sinfdagi dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni vaqtda har bir o'quvchining sog'lig'ini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida kechiktirmay yordam beradilar.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi. Ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, maktab miqyosida uyishtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan birga aloqa o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfdagi dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatishga erishadi, ota-onalarga pedagogik ilm tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarni: sinf jurnali, o'quvchini kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlar, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishda sinf tarbiyaviy soatlari ish mazmunini aniqlash va rejalashtirish mavzularini fasllarga qarab, bayram, tarixiy sana hamda voqealar, tinchlik, do'stlik, mehnat, oila, baxt, kasb tanlash, tabiatni sevish, vatanparvarlik, ajdodlarimiz merosi, insoniylik, axloqiylik singari tarbiyaviy muammolar asosida tasniflash katta muvaffaqiyatning garovi ekanligini ko'rsatmoqda.

Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil qilish unga o'quvchilarni ruhan tayyorgarlikdan boshlanadi, ular sinf tarbiyaviy soatlarini intizorlik bilan kutishlariga harakat qilish lozim. Ko'riladigan masalalar nechog'li muhokama va muzokarabop bo'lishi hamda u ko'ngildagidek o'tkazilishi darkor. Avvalo muhokama qilinadigan mavzu, uning mazmuni, uni o'tkazish vaqti, tartibi va ushbu mavzuga oid materiallarni topish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Avloniy. "Turkiy Guliston yohud ahloq" - Toshkent: O'qituvchi, 1992
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi - Qarshi: 2007
3. Kaykovus. "Qobusnoma". — Toshkent. O'qiyuvchi, 1986.
4. "Axloq _odobdagioid hadis namunaari". Toshkent: Fan, 1990.
5. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 1-4.
6. Shuxratovna, A. N. (2024). RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI DINIY TARKIBIY QISMLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 5-8.
7. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI O 'QITISH METODIKASI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 170-175.
8. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILINI O 'RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 182-186.
9. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O 'QITISHNING SHAKLLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(4), 176-181.
10. Zafarovna, Y. I., & Shuxratovna, A. N. (2024). O 'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O 'RNI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 125-128.
11. Shuxratovna, A. N. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O 'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA O LISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. *Scientific Impulse*, 2(19), 108-110

12. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.

13. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Personality development and activity (communication), their management as an educational pedagogical problem. Academic research in educational sciences, 2(4), 81-88.

14. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.

15. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.

16. qizi, D. G. B. ., Darxonova Gulmira Burxon qizi, Yakubova Intizor Zafarovna, & Shuxratovna, A. N. . (2024). O'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O'RNI. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 3(4), 125–128. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/501>

17. Isroilova Sevinch Aqilbek qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLIISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. Scientific Impulse, 2(19), 108–110. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15153>

18. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 116-118.

19. Raximboyeva Gulsanam Gulmirza Qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna (2024). SU'NIY INTELLEKT: FOYDALIMI YOKI ZARARLI ?. Science and innovation, 3 (Special Issue 18), 691-693. doi: 10.5281/zenodo.10806277

20. G'ulomjonova, D., & Artikova, N. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 112-117.

21. Shuxratovna, A. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. Scientific Impulse, 1(4), 1592-1594.